



Tadqiqot **UZ**

**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**28 FEVURAL
№25**

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 25-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
25-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
25-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ- 25**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
25-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART- 25**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 25-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 28 февраль 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 15 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шохидат Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ГЕОГРАФИЯ

1. Boboyorova Feruza Sunnatovna GEOGRAFIK XARITALAR BILAN ISHLASH.....	7
2. Djamalova Lobarxon Asqarovna URBANIZASIYA JARAYONI VA SHAHARLARNING GEOGRAFIYASI.....	8
3. Dushamova Nozanin Jo'rayevna GEOGRAFIYA FANINING O'QUVCHILAR HAYOTIDAGI O'RNI.....	10
4. Erkinov Rustam Atabayevich UMUMTA'LIM MUASSASALARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI.....	11
5. Xojayeva Zaynab Shukrullayevna UMUMTALIM MAKTABLARIDA GEOGRAFIYA DARSLARIDA PEDOGOGIK O'YINLARDAN FOYDALANISH.....	13



ГЕОГРАФИЯ

GEOGRAFIK XARITALAR BILAN ISHLASH.

Boboyorova Feruza Sunnatovna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 21-umumiy o`rta
ta`lim maktabi geografiya fani o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada geografiya darslarida xarita bilan ishlash, uning metodlari va ulari qo`llash hamda uning avzalliklari haqida ma`lumot beradi.

Kalit so`zlar: geografiya, geografik ta`lim, xarita, globus, ekvator, mashtab.

Geografiyani xaritasiz tasavvur qilib bo`lmaydi. Xarita geografiya o`rganadigan barcha jihozlar va hodisalar haqida hikoya qila oladi, xarita tez, aniq va lo`nda qilib hikoya qilishda kitobdan ham avzallik qilishi mumkin. Xarita - geografiya darslarida bilim olishning asosiy manbaidir. Shunday ekan har bir o`quvchi xaritani o`qiy olishi lozim. Agar o`quvchi xaritaga qarab hali o`rganilmagan dengiz yoki daryo haqida gapira olsa, tog`larning balandligi va yo`nalishini aniqlay bilsa, ma`lum bir joyning yer yuzasini yoki iqlimini ta`riflay olsa, bu o`quvchi xaritani biladi, deyish mumkin.

Xaritadan to`g`ri foydalana olishni o`rganish uchun geografiya o`qituvchi o`quvchilarni har qaysi yangi xarita mana bunday tartibda tanishtirib borishi lozim. Xaritaning turi, undan qanday maqsadda foydalanish va uning shartli belgilarini tushuntirish, o`quvchilar e`tiborini xarita mashtabiga jalb etish lozim.

Bundan tashqari, o`qituvchi o`quvchilar e`tiborini gradus to`rining holati, meridian va paralellarning qanday o`tkazilganligiga kenglik va uzunlikni belgilagan o`rniga, ekvator, bosh meridian, qutbiy va tropik doiralari jalb qilish lozim, Globusdagi joy xaritada boshqacha tasvirlanganligini ko`rsatib olish kerak. Geografiya fani o`qituvchisining asosiy vazifalaridan biri o`quvchilarga xaritani tushunish va va o`qiy olishni o`rgatishdir.

Xaritaning bilishning ma`nosi shuni, o`quvchilar undagi shartli belgilarga tushunishlari va shu shartli belgilar orqali ko`rsatiladigan joy va hodisalarning xarakterlarini ko`z oldiga keltira olishlari xaritaga qaraganlarida ular ongiga daryolar, tog` tizmlari va muzliklarining manzaralari xosil bo`lishi kerak.

Xaritani bilish uchun joyda mo`ljall olish, gorizont tomonlarini yo`nalishlarini qog`ozga tasvirlashni, mashtab bilan ishlashni joy planini o`rganishni va chizishni bilish kerak. Undan keyin esa o`quvchilar globus va xaritalarda geografik kenglik va uzunliklarini aniqlash turli mazmundagi xaritalarini o`qishni xaritalarini asosiy avzal kamchliklarni aniqlashni bilish lozim.

Geografik ta`limda xarita bilan ishlash uslublarini boshqa uslublar bilan bog`langan xarita bilan ishlash bunday tartibda olib boriladi.

1) Yer yuzasi elementlari rel`ef shakllari vulqonlar dengiz, qo`ltiqe buloqlar, daryolar ko`llar bilan o`quvchlarni bevosta tanishtirish kerak.

2) Xaritani joy bilan solishtirganda topqirlik xarita belgilar bilan tanishtirish.

3) Joy kattaligini ko`z bilan chamalashga o`rgatish.

4) O`quvchilarga xaritaviy bilimlarni o`rgatish maqsadida topografik va geografik xaritalarni solishtirishni o`rgatish.

5) Gradus to`rini yaxshi bilib olishlari uchun geografik koordinatalarni mashq qilishni o`rgatish.

6) Turli masshtabli xaritalardan ayrim geografik joylarni topishni o`rgatish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Egamberdiyev, Asomberdi. "Xaritagrafiya" O`zME. X-harfi Birinchi jild. Toshkent, 2000-y
2. Berlyant A. M., Kartografiya, M., 2002; Egamberdiyev A., O`zbekistonda kartografiyaning shakllanishi, hozirgi holati, muammolari va istiqbollari, T., 2001.
3. Ziyonet.uz internet sayti.



URBANIZASIYA JARAYONI VA SHAHARLARNING GEOGRAFIYASI

Djamalova Lobarxon Asqarovna

Toshkent shahar Yunusobod tumani 70-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari fani o'qituvchisi

Telefon: +998 94 690 38 90

djamalovalobarhon@gmail.com

Annotatsiya: Quyidagi ushbu ilmiy maqolada ya'ni urbanizatsiya jarayoni va shaharlarning geografiyasi bo'yicha ya'ni – urbanizatsiya haqida ma'lumot, shaharlar geografiyasi, shaharlarning bir necha elementlarga bo'linishi, funksional tiplar haqida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Urbanizatsiya, BMT, "Polifunksional" Harbiy, Detroyt, Tolyatti, Kembrij, Dyunker. Odessa.

Shaharlar yirik aholi punktlari bo'lib, unda yashaydigan kishilar qishloq xo'jaligi bilan band bo'lmasdan, boshqa ijtimoiy – iqtisodiy, madaniy sohalarida shug'ullanishadi. Shaharlar turli makon va zamonlarda iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqaruv markazi rolini o'ynagan. Shahar aholi punktlari o'lchami jihatidan yirik va unda yashovchi aholi, qishloq aholi punktlapidadigiga nisbatan ko'p sonliligi hamda zichligi bilan tavsiflidir. Shaharlarning qudrati ularda mujassamlangan iqtisodiy, intellektual va demografik salohiyat bilan belgilanadi.

Shahar aholi punktlapining shahar, deb nomlanishida unda yashovchilar miqdori ham muhim ko'rsatkichlardan biridir. Mamlakatlar, mintaqalar aholisining hududiy tarkibida shahar aholisining va shaharlarning o'sib borishi – urbanizatsiya jarayonining rivojlanishiga olib keladi.

Urbanizatsiya – shaharlashish, ya'ni shaharlarning o'sishi va ko'payishi. Bu jarayon fan-texnika inqilobi davrida keskin kuchayib, shahar aholisining ko'payishiga, shahar turmush tarzining keng tarqalishiga sabab bo'ladi. BMT bergan statistik ma'lumotlarda hozirda dunyo aholisining teng yarmi shaharlarda yashaydi, ya'ni 2009-yilda yer shari aholisining 50 foizi shaharlarga to'g'ri keladi va bu ko'rsatkich 2030 yilda 60 foizni, ya'ni 3 milliarddan 5 milliardgachani tashkil etadi. Bunday shahar aholisining o'sishi faqat tabiiy ko'payish hisobiga ro'y beradi. 2000 – 2030 yillar orasida yiliga 1,8 foizdan ortib boradi, bu global o'sishdan ikki marta ko'p degani.

Ko'plab qadimiy shaharlarning geografik o'rni ular umrini belgilashga xizmat qilgan, desak xato bo'lmaydi. Chunki, aynan shu geografik o'rindagi noqulayliklar yer yuzidan ko'plab shahar va shaharchalarning yo'qolib ketishiga sabab bo'lgan. N.N.Baranskiy shaharlarning iqtisodiy geografik o'rni ular uchun muhim iqtisodiy ahamiyatga ega. Uni tabiiy geografik o'rindan, ya'ni tabiiy obyektlarga nisbatan tutgan o'rnidan farqlay bilish kerak. Chunki, dengiz qirg'og'i, tog' tizmalari shahar iqtisodiyotiga ta'sir etishi yoki etmasligi mumkin, deb aytib o'tgan edi. Shaharlarning iqtisodiy geografik o'rni birqancha komponentlardan tashkil topadi. Bular esa o'z navbatida yana bir necha elementlarga bo'linib ketadi. Jumladan:

1. Shaharlarning tabiiy geografik o'rni: – tabiat zonalariga nisbatan o'rni; – tabiiy resurslarga nisbatan;
2. Sanoat-geografik o'rni: – xom ashyo manbalariga nisbatan, ya'ni elektro energiya, yoqilg'i va hakoza; – qayta ishlash sanoti markazlariga nisbatan;
3. Shaharlarning agro-geografik o'rni:– qishloq xo'jaligi xom ashyosi ishlab chiqaradigan rayonlarga nisbatan; – oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi rayonlarga nisbatan;
4. Transport-geografik o'rni: – ichki muhim transport magistrallariga nisbatan; – xalqaro ahamiyatga ega transport tizimiga nisbatan;
5. Bozor-geografik o'rni: – maxsulot tayyorlashga ixtisoslashgan tarmoq rayonlariga nisbatan; – iste'mol mollari bilan ta'minlaydigan rayonlarga nisbatan;
6. Geodemografik o'rni; – aholi o'sishi bilan bog'liq rayonlarga nisbatan o'rni; – fan, ta'lim va madaniyat markazlariga nisbatan
7. Siyosiy-geografik o'rni; – mamlakat poytaxtiga nisbatan; – davlat chegaralariga nisbatan;
8. Harbiy-geografik o'rni; – mudofaa ahamiyatiga ega ob'yektlarga nisbatan; – siyosiy-harbiy o'choqlariga nisbatan.

Shaharlarning mazkur geografik o'rnlari qulayligi ularning turli soha va tarmoqlar bo'yicha rivojlanishiga imkon beradi. Har bir shahar uchun eng muhim geografik o'rni bu transport tarmoqlariga nisbatan joylanishi bo'lsa ham turli hududlarda IGO' ahamiyati bir-biridan malum



darajada farq qiladi.

Shaharlar hoh u yirik, hoh mayda bo'lishidan qat'iy nazar har birining bajaradigan o'z funksiyasi bor. Shaharlarning funksiyasi-aholining shahar hosil qiluvchi tarmoq va sohalardagi ishlab chiqarish faoliyati hisoblanadi. Ba'zi olimlar shaharlarni quyidagi funksional tiplarga ajratishni ma'qul ko'radi.

1. Siyosiy-ma'muriy markazlar, poytaxt shaharlar.
2. Ko'p funksiyali shaharlar-viloyat markazlari.
3. Ko'p tarmoqli yirik sanoat markazlari.
4. Asosan bir yoki ikki sanoat tarmog'iga ixtisoslashgan shaharlar.
5. Transport markazlari.
6. Agroindustrial shaharlar.
7. Tuman markazlari.
8. Rekreatsiya shaharlari.
9. Ilmu-fan markazlari, universitet shaharlari va x.k.

Xulosa shuki – Shaharlar mazkur yuqorida keltirilgan funksiyalari bo'yicha bir-biridan ma'lum darajada farq qilishadi. Masalan, dunyoda AQShdagi Detroyt, Rossiyadagi Tolyatti shaharlari avtomobilsozlik, Fransiyadagi Dyunker, Ukrainadagi Odessa, Rossiyaning Vladivostok, Murmansk transport, ya'ni port shaharlar; Angliyadagi Kembridj, Germaniyaning Xaydelburg, Dubna o'quv, ilmiy markazlar; Hindistonning Varanasi, Saudiya Arabistonining Makkasi diniy markazlar vazifasini bajarishi bilan ajralib turadi. Ko'pgina shaharlar bitta emas, birqancha funksiyani bajaradi, bunday shaharlar "polifunksional" shaharlar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Борисов В.А. Демография. Учебник для вузов. М, 1999, 2004.
2. Буриева М.Р. Демография асослари. «Укув кулланма. Тошкент, 2001.
3. Буриева М.Р., Тожиева З. Аҳоли географияси. Тошкент, 1999.



GEOGRAFIYA FANINING O'QUVCHILAR HAYOTIDAGI O'RNI

Dushamova Nozanin Jo'rayevna
Navoiy viloyati Qiziltepa tumaning
25 maktab geografiya fani oqituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada maktab o'quvchilariga geografiya fanining o'qitilishida muhimlik darajasi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: geografik muhit, fuqorolik, tarix, iqtisod.

Bolalarga geografiyani o'rgatishning ahamiyati

Asosan, o'qish uchun alifbo yoki arifmetika uchun ko'paytma jadvallarini bilish zarur bo'lganidek, joylarning qayerdaligini bilish uchun geografiyani va shu joylar haqidagi ba'zi dalillarni o'rganish kerak, shuning uchun ular nima uchun boshqacha ekanligini bilib olish mumkin.

Bugungi kunda sinflarda geografiya, tarix va fuqarolik fani kamdan-kam o'qitilmoqda, bu globallashtirish va jahon iqtisodiyotiga e'tibor kuchayib borayotganini hisobga olgan holda asosiy muammo hisoblanadi.

Geografik bilimlardan bexabar bo'lgan kelajakdagi rahbarlar dunyo miqyosidagi voqealarni tahlil qilishda va oqilona qarorlar qabul qilishda, hatto kundalik hayotning asosiy fizik tizimlarini, masalan, quyosh tizimining iqlim, suv aylanishlari, okean oqimlari va boshqalarga ta'sirini tushunishda qiynaladilar.

Geografiya o'z mamlakatingizni tushunishga yordam beradi. Geografiyani o'rganish yer yuzidagi turli joylar va ularning bir-biri bilan bog'liqligi to'g'risida bilim beradi. Odatda, ko'proq tajriba orttirish bilan o'zingizning uyingiz, mintaqangiz, mamlakatingiz, qit'angiz va boshqalarni o'rganishdan boshlaysiz.

Mamlakatingiz haqida gap ketganda, siz quyidagilar haqida bilib olishni kutishingiz mumkin:

Fuqarolik

Geografiya bilimlari sizni yanada yaxshi fuqaro bo'lishga undaydi. Geografiyani o'rganish o'quvchilarga muhim voqealar va milliy va xalqaro siyosatni aniqlash va qadrlash imkonini beradi; milliy resurslardan eng yaxshi foydalanish bo'yicha yaxshiroq va xabardor qarorlar qabul qilish; landshaft va yerdan foydalanishni optimallashtirish siyosati to'g'risida tegishli savollar berish mumkin. Ko'proq ma'lumotga ega bo'lgan fuqaro yaxshi rahbar bo'lishi mumkin.

Iqtisodiyot

Iqtisodiyot va geografiya o'rtasida sanoatlashtirish yoki energiya ishlab chiqarish darajasi bilan chambarchas bog'liqlik mavjud; transport tarmoqlari va texnologiyalarning qo'llanilishi; tabiiy resurslarning joylashishi; va savdo sxemalari va mamlakat va mintaqa iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatadigan ko'plab boshqa omillar.

Tarix

Geografiyani o'rganish sizning millatingiz tarixining muhim belgilarini, shu jumladan er shakllari va iqlimning erdan foydalanishga ta'siri, tsivilizatsiyalarning ko'tarilishi va qulashi, migratsiya shakllari va boshqalarni aniqlash va qadrlash imkonini beradi. Landshaft tarixini bilish sodir bo'lgan transformatsiya jarayonlarini tushunishga yordam beradi.



UMUMTA'LIM MUASSASALARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Erkinov Rustam Atabayevich

Xorazm viloyati Urganch tumani

10-son umumta'lim maktabi geografiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish masalalari, ularning tabiatni asrashi va unga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishi takidlangan.

Kalit so'zlar: ekologiya, tabiat, o'quvchi, atrof-muhit, motiv, ekologik madaniyat.

Bugungi kunda jaxonda inson tomonidan biosferaga ko'rsatilayotgan ta'sirni tartibga solish, ijtimoiy taraqqiyot bilan qulay tabiiy muhitni saqlab qolishning o'zaro ta'sirini uyg'unlashtirish, inson va tabiatning o'zaro munosabatlarida muvozanatga erishish masalalari borgan sari dolzarb bo'lib qolmoqda. Zero, tabiat va insoniyatning omon qolishi, ijtimoiy taraqqiyotning kelajagi mavjud ijtimoiy ekologik muammolarning qay darajada hal qilinishi bilan belgilanadi.

Respublikamiz hududida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish muammolarining jiddiy keskinlashuvi axolining barcha qatlamlari, birinchi navbatda umumta'lim muassasalari o'quvchilari shaxsida ekologik madaniyatni-tabiatga, atrof-muhitga ma'suliyatli munosabatni shakllantirish masalasini dolzarb qilib qo'yimoqda. Aks holda haqiqiy sog'lom turmush tarzi va barkamol shaxsni shakllantirish mumkin emas.

Bugungi sharoitda vatanimiz tabiatiga, atrof-muhitiga ehtiyotkorona munosabat va ma'suliyat bilan qarash har bir o'quvchining shaxsiy e'tiqodiga aylanmog'i shart. Xech bir o'quvchi atrof-dagi muhitdan, jamiyatda o'rnatilgan axloqiy-ekologik me'yor va tartiblardan tashqarida yashashi mumkin emas.

Umumta'lim muassasalarida dars jarayonida o'quvchilar shaxsida ekologik madaniyatni shakllantirish quyidagilardan iborat:

- dars, mustaqil ta'lim va maktabdan tashqari mashg'ulotlar ekologik mazmunga ega bo'lishi;
- darslarda ekologik ta'lim va tarbiyaning maqsadga muvofiq noanaviy tashkiliy shakllari, metodlari va vositalaridan unumli foydalanish;
- darslar va darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarning ekologik tarbiyalanganlik darajasi e'tiborga olinishi va ekologik madaniyat andozasini yaratish;
- o'quvchilarni yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olingan xolda ekologik mazmunli ishlarga jalb qilish;
- o'quvchilarni ekologik faoliyatga tayyorlashda tabiiy fanlardan foydalanish, ekologik tarbiyaviy tadbirlarda maktab, oila va keng jamoatchilik hamkorligini ta'minlash hamda bu ishlarni o'qituvchilar rahbarligida amalga oshirish.

Ma'lumki, har qanday faoliyat asosida ehtiyoj yotadi, ehtiyojsiz faoliyat bo'lishi mumkin emas. Shunga ko'ra, umumta'lim muassasalarida o'quvchilarining ekologik faoliyati negizida o'lka tabiati bilan munosabatda bo'lish ehtiyoji yotishi shart va u o'lka tabiatiga ijobiy hissiy munosabatni uyg'otishga, mahalliy ekologiya va atrof-muhit muhofazasi muammolarini chuqur tushunishga yordam berishi lozim. Shu nuqtai nazardan quyidagi ekologik motivlar farqlanadi:

fuqarolik-vatanparvarlik - o'quvchining o'z yurti, vataniga muhabbati, uning resurslarini yanada ko'paytirish istagi, atrof-muhit muhofazasi bo'yicha tabiat va jamiyat oldidagi o'z burchini qis qilishi;

insonparvarlik - o'quvchining jamiki tirik mavjudotlarga ezgulik, rahm-shafqat ko'rsatishga intilishi;

estetik - o'quvchining atrof-muhit go'zalligidan zavqlanishi va uni saqlashga intilishi;

ilmiy bilish - o'quvchining inson (jamiyat) va tabiat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni tushunishga, qonuniyatlarini bilishga intilishi;

tozalik-salamatlik - o'quvchining inson salomatligini saqlash va qayta tiklashda atrof-muhit sifatining ahamiyatini tushunishi va uni ifloslanishdan himoya qilish istagi;

iqtisodiy - o'quvchining tabiatni moddiy boylik va farovonlik manbai sifatida tushunishi.

O'quvchilarning o'z o'lkasi ekologiyasi va atrof-muhit muhofazasiga oid ilmiy bilimlarini rejalashtirish ekologik faoliyat maqsadini aniqlash, vositalarini tanlash va qulay yechimlarini izlashni nazarda tutadi. Bu jarayonlar o'quvchining oldin egallagan ijtimoiy-ekologik tajribalari



hamda istiqbolni har tomonlama ekologik tahlil qilishdan foydalanishga asoslanadi. Shunga ko'ra o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan mahalliy ilmiy ekologik va atrof-muhit muhofazasiga oid bilimlarni o'z ahamiyati va ularni egallash hususiyatlariga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

nazariy bilimlar - mahalliy tirik mavjudotlar bilan atrof-muhit; inson bilan tabiat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik haqidagi umumlashgan tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-iqtisodiy va texnik-texnologik bilimlar, ular o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlar. Nazariy bilimlarning asosiy vazifasi o'quvchilarda ekologik dunyoqarash g'oyalarini tarkib toptirishdan iboratdir;

amaliy bilimlar- mahalliy ekologik dalillar, tavsiflar va atamalar majmui. Amaliy bilimlarning asosiy vazifasi o'quvchilarning ekologik ong saviyasini oshirishdan iboratdir;

metodik bilimlar - ekologik tadqiqot va faoliyat usullari hamda ko'nikmalari majmui. Metodik bilimlarning asosiy vazifasi o'quvchilarni mahalliy amaliy ekologik faoliyatga tayyorlashdan iboratdir

Maktab o'quvchilari o'zlashtirishi zarur bo'lgan mahalliy ekologik va atrof-muhit muhofazasiga oid bilimlar mazmuni va hajmini belgilashda ularning psixologik va shaxsiy xususiyatlari xamda mahalliy tabiiy va ishlab chiqarish sharoitlari e'tiborga olinishi zarur. O'quvchilarning ekologik dunyoqarashi, bilim va ko'nikmalarini oshirish evaziga, ularda tabiatga, atrof muhitga bo'lgan muhabbatini shakllantiramiz.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Ismailov A, Aqadov R. Ekologik ta'lim-tarbiya
2. www.ziyouz.com



UMUMTALIM MAKTABLARIDA GEOGRAFIYA DARSLARIDA PEDOGOGIK O'YINLARDAN FOYDALANISH

Xojayeva Zaynab Shukrullayevna

Urganch shahar 19-IDUMning geografiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada geografiya dars jarayonlarida qo'llaniladigan pedagogik texnologiya va interfaol o'yinlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: interfaol, dars jarayoni, geografiya, Eratosfen. o'quvchi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng qabul qilingan qonunlar ta'lim sohasini tubdan isloh qilishni, o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlardan to'la xalos etishni taqozo etadi. Bizga ma'lumki, geografiya dunyodagi eng qadimgi va qiziqarli fanlardan biri hisoblanadi. «Geografiya» deb nomlangan eng dastlabki kitob bundan ikki ming yil ilgari yunon olimi Eratosfen tomonidan yozilgan. Darhaqiqat, geografiyaga qiziqmagan, o'zining kundalik hayotiy faoliyatida geografiyaga duch kelmagan insonni uchratish qiyin. Bugungi kun geografiyasi yangiliklarni o'quvchilarga yetkazish uchun o'qituvchilardan o'z ustida muntazam ishlashni talab qiladi. Dars – ta'limning asosiy shaklidir. Darsni mazmunan va shaklan takomillashtirish, bu didaktikaning bosh masalalaridan biri hisoblanadi. Faqatgina darsda emas, darsdan tashqari, ya'ni sinfdan tashqari ishlarda noan'anaviy interfaol usullarni qo'llab sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazish, uni yuqori pog'onaga ko'tarish o'quvchilarda shu fanni o'rganishga bo'lgan havaslarini orttirish lozim. Geografiya darslarini va sinfdan tashqari ishlarni hayotga tadbiiq etish, ularni qiziqarli va ijodiy tashkil etish bosh masaladir. Darsda o'yinlardan foydalanish muhim o'rin egallaydi. Shu o'rinda geografik topishmoqlarni darslarga olib kirish ko'zlangan maqsadga erishishda benihoyat katta yordam beradi. Sababi, topishmoqlar katta so'z o'yini asosida vujudga keladi. Bu qadimiy geografik o'yin ham katta badiiy mahoratni va topqirlikni talab etadi. Topishmoqlar xalq ijodiga obrazli so'zga muhabbat uyg'otadi. Bolalarga estetik zavq bag'ishlab, ularni she'riyat dunyosiga olib kiradi. San'atning o'ziga xos bo'lmish bu she'rlar o'sib kelayotgan avlodning ma'naviy ehtiyojlariga ozuqa bo'ladi. Ezgulikka chorlab, inson uchun eng aziz bo'lgan ona tiliga, tug'ilgan yurtiga muhabbat uyg'otadi. Shuningdek, topishmoqlar darslarda olingan bilimlarni mustahkamlashga, fikrlashga o'rgatib, fanga qiziqishini orttiradi.

Insoniyat yaratilibdiki, bir-biri bilan muloqot qilish uchun suhbatga kirishadi. Bu suhbatlardan har bir inson o'ziga kerakli ma'lumotni oladi. Geografiya darslarida «Geografik suhbatlar» o'quvchilarni geografiya fani bo'yicha qiziqarli mavzularda suhbatlashishga chorlaydi. Bu suhbatlardan qaysi o'quvchi fan to'g'risida chuqur ma'lumotga ega ekanligi yaqqol ko'rinadi. Suhbatlarni o'z o'rniga kerakli mavzularga bog'lab qo'llanilsa, geografik bilimlardan qiziqarli suhbatlar vaqtida foydalanishga o'rgatadi. Bu suhbatlarni nutqi ravon o'quvchilar yordamida magnit tasmaga tushirilib, dars jarayonida foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Yana bu suhbatlardan sahna ko'rinishlari tarzida foydalanilsa o'quvchilarga u yoki bu mavzuni chuqurroq egallashda yordam beradi.

Umumta'lim maktablarida geografiya darslarini tashkil etishda shuningdek, turli pedagogik o'yilar ham ancha samarali hisoblanadi. Mazkur o'yinlar orqali o'quvchilarni dars jarayonlariga yanada qiziqishlarini oshirish, bundan tashqari dars jarayonining qiziqarli va samarali o'tishini ta'minlaydi. Pedagogik o'yinlar ham geografiyaga aloqador bo'lsa maqsadga muvofiq holda bo'ladi.

Kim ko'p biladi» o'yini. Bu o'yinni geografiyaning xohlagan mavzusini o'rganishda qo'llash mumkin.

O'yin texnologiyasi: Har bir ishtirokchi biror-bir mavzu yuzasidan bittadan muammoli savol tuza olishi kerak. Savollar yozilgan qog'ozlarni o'qituvchiga topshiradilar, sinf o'quvchilari ikki guruhga bo'linadi. Boshqaruvchi qo'llarni sanab, har biriga 1 balldan qo'yadi. Har bir savolga bir o'quvchidan javob so'raladi. Agar javob noto'g'ri bo'lsa o'sha guruhdan bir ball olib tashlanadi, qaysi guruh ko'p ball to'plasa, o'sha guruh g'olib bo'ladi.

«Besh daqiqa» o'yini. Bu o'yinni geografiyada xohlagan mavzuni o'rganishda qo'llash mumkin. O'quvchilarni stol atrofida shunday joylashtirish kerakki, bir-birining nima yozayotganligini ko'rmasin. O'yinni o'qituvchi yoki a'lochi o'quvchi boshqarib borishi mumkin. U vazifani tanlaydi. O'quvchi besh daqiqa ichida topshirilgan topshiriqni bajaradi. O'quvchilar yozishni bir



vaqtda tugatishi shart. Masalan, geografiyadan joy nomlari bo'lsa eng ko'p nom yozgan va uni izohlab bergan o'quvchi g'olib hisoblanadi. «Nimaga? va nima uchun?» o'yini. Bu o'yinni barcha umumta'lim fanlarining barcha mavzularini o'rganish jarayonida qo'llash mumkin. Jumladan, geografiya fanida ham mavzularni o'rganishda qo'llasak bo'ladi, bu o'yinda o'qituvchi bir xil hajmdagi karton qog'ozlarga bittadan qirqtagacha aniq savollar yozib chiqadi. Savollar «nimaga va nima uchun?» tamoyiliga moslab yoziladi. Masalan, O'zbekiston qaysi iqlim mintaqasida joylashgan?, Shu iqlim mintaqasiga xos xususiyatlar nimalardan iborat? Va hokazo. Usulni qo'llashdan oldin barcha varaqalar yig'ib olinib, aralashtiriladi va teskari qilib qo'yib chiqiladi. O'quvchilar birin-ketin varaqa tortib, savolga javob beradilar. Agar savolga javob bo'lmasa, o'quvchi uni qaytib joyiga qo'yadi. Savolga to'g'ri javob bergan o'quvchi varaqani o'zida saqlab qoladi. Eng ko'p varaqa to'plagan o'quvchi g'olib hisoblanadi.

«Xayoliy sayohat» o'yini. Ta'limning bu o'yini geografiya, til adabiyot va boshqa fanlarda qo'llanilishi mumkin. Tarixdan biror davrdagi ma'lum bir davlat tarixiga oid, geografiyadan biron-bir qishloq, materik, orol yoki davlat bo'ylab xayoliy sayohat qilib, uni yozma tarzda yozish talab etiladi. Ishtirokchi o'zi mustaqil o'sha joyni yozma tasvirlashi kerak. Kimning yozma tasvirlashi mazmunan yuqori saviyada yozilgan bo'lsa, u g'olib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kalonov B.H., Hayitov A.T., Erdonov L.N. O'zbekiston geografiyasini maktabda o'rganish.- Qarshi, Nasaf nashriyoti, 2004.
2. Hayitov A.T.,Boymurodov N. Ta'limda Noan'anaviy darslar va interfaol usullardan foydalanish. -T.: Yangi asr avlodi. 2006.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 25-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(25-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 28.02.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000